

IJTIMOY HIMOYAGA MUXTOJ BOLALARNI FARAVONLIGINI OSHIRISHDA  
O'ZBEKISTON TAJRIBASI

**Abdukarimova Roxila Abdurayimovna**

*Talaba, Far'ona davlat universiteti, Farg'ona shahri*  
*[Abdukarimovarohila3@gmail.com](mailto:Abdukarimovarohila3@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Ota-ona mehridan mahrum va nogironligi bor bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida tarbiyalash barchamizdan jiddiy e'tibor va amaliy harakatlarni talab qiladi. Birorta bola "men yetim yoki nogironman" deb o'ksinmasligi, davlatimiz va jamiyatimizning mehridan chetda qolmasligi kerak. Ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, barcha sharoitlarni yaratib berish nafaqat vazifa, balki muqaddas burchdir. Masalaga shu jihatdan yondashsak, ishimizda albatta natija bo'ladi. Farzandlarimizga qilgan har bir yaxshiligimiz o'n yaxshilik bo'lib qaytadi.*

**Kalit so'zlar.** *Ijtimoiy ximoya, yetim bolalar, inson huquqlarini, ayollar huquqlari, bolalar huquqlari*

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning zamirida xalq manfaatlari yotadi. Davlatimizda inson huquqlarini ta'minlash borasida ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Ayniqsa, ayollar va bolalar manfaatini himoya qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoyevning viloyatlarga qilgan so'nggi tashriflarida Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan uchrashuvi hamda ularga yaratilayotgan sharoitlar bilan yaqindan tanishuvi jamoatchilik tomonidan iliq qabul qilinyapti.

Avvalambor shuni ta'kidlab o'tishni istardimki, bolaga o'z ota-onasi tomonidan beriladigan mehr, e'tibor, tarbiyaning o'rnini hech narsa to'ldira olmaydi. Afsuski, jamiyatimizda turli sabablarga ko'ra ota-onasiz va boquvchisiz qolib ketayotgan farzandlar ham bor. Ushbu bolalarga o'z vaqtida e'tibor qaratilmasa, ularning jamiyatga moslashuviga sharoit yaratilmasa, bu salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, murakkab sharoitga tushib qolgan bolalarni himoya qilish davlatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bolalar manfaatlarini himoya qilishda, ularning jahon andozalariga muvofiq bilim olishida, hayotda va jamiyatda o'z o'rnini topishida juda keng ishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, mamlakatda ijtimoiy yetimlikning oldini olish, aholi va yoshlar orasida sog'lom oila qurishga mas'uliyat bilan yondashishni targ'ib qilish, oilaviy qadriyatlarga ma'naviy-axloqiy munosabatni shakllantirishga ham katta e'tibor berilyapti.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yana-da kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori orqali yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularning jadal ijtimoiy moslashuviga keng imkoniyatlar yaratish va boshqa zarur choralar bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

Ma'lumki, xalqaro hujjatlardan biri bo'lgan bolalar manfaatlarini aks ettiruvchi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya 1989-yilda 20-noyabrda Nyu-York shahrida BMT bosh Assambleyasining qarori bilan qabul qilingan. Unga O'zbekiston 1992-yilda qo'shildi. Ushbu konvensiya dunyoda eng ko'p davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan BMT bitimi hisoblanib, u butun jahon bolalari hayotini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham bola huquqlarini ta'minlashda qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bolalarni majburiy mehnatga jalb qilishga qarshi kurashish bo'yicha so'nggi yillarda O'zbekistonda davlat rahbari, parlamenti va hukumati sa'y-harakatlari bilan mamlakatimizda bolalar mehnatiga to'liq barham berildi. Amalga oshirilgan tegishli chora-tadbirlar natijasida 2018-yil AQSH O'zbekiston paxta mahsulotlarini bolalar mehnati orqali yetishtirilgan mahsulotlar ro'yxatidan chiqardi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va Bola huquqlari bo'yicha vakilning rolini yanada kuchaytirish va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan 2020-yil 29-maydagi "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari mamlakatimizda ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni muayyan tartibga solib, zarur yo'nalishlarni belgilab berdi.

Albatta O'zbekistonda har jabhada yuqori marralarni ko'zlab islohotlar olib borilmoqda va shu yo'lda uchrayotgan ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga jiddiy harakat qilinmoqda. Shu o'rinda hozirgi kunda bolalar manfaatlarini himoya qilish sohasida qanday muammolarni bartaraf etish choralari ko'rilyapti.

— Har qanday muammoni ijobiy hal qilishni istasak, avvalo ushbu muammoni keltirib chiqarayotgan omillarni, shart-sharoitlarni aniqlashimiz lozim bo'ladi. Bu esa tegishli mavzularda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazishni, ularning natijalarini tahlil qilish asosida dolzarb xulosa va takliflarni ishlab chiqishni talab etadi. Ya'ni, azaldan bolajon bo'lib kelgan jamiyatimizda nega bolalar himoyasi zarurat darajasiga ko'tarildi? Qanday omillar va shart-sharoitlar bolalarning har tomonlama kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin? Shunga o'xshash qator savollarga javob topish vaziyatga to'g'ri baho berishga yordam beradi.

Bu borada avvalambor e'tiborni talab qiladigan muammolar dunyoda jadal rivojlanib borayotgan globalashuv sharoitida yangi to'qnashuv va tahdid turlarining yuzaga kelayotgani bilan bog'liq. Global axborot maydonida gibrid xarakterga ega xavf-xatarlarning kuchayayotgani, biologik va kimyoviy qurollardan, shu jumladan bolalar ishtirokida foydalanish faktlarining ko'payayotgani shunday muammolar jumlasidan deyish mumkin. Afsuski, bunda aksariyat hollarda bolalar to'qnashuvlarning ishtirokchisiga, ta'bir joiz bo'lsa, nishoniga aylanib qolmoqda. Yosh avlod ongiga zararli ta'sir qiluvchi buzg'unchi chaqiriqlar kuchaymoqda. Shu bois bolalarimizning ma'naviy ongini mustahkamlash, "oq" va "qora"ni ajratishni o'rgatish, har qanday axborotni tahlil qilib, undan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish hozirda eng asosiy vazifalardan biridir.

Mening fikrimcha quyidagi ijtimoiy xarakterga ega muammolar bolalarimizning ruhiyatiga, ma'naviyatiga va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- birinchidan, garchi oilaviy ajrimlar soni kamayayotgan bo'lsada, bunday muammo natijasida bolalar eng ko'p aziyat chekayotganini qayd etish lozim.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda O'zbekistonda 31,3 mingta oilalar ajrashgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 28,2 mingtani tashkil qilgan.

Oilaviy ajrimlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar, OAV orqali targ'ibotlar albatta ajrimlar sonini kamayishiga ta'sir qilmoqda. Lekin oilaviy ajrimlar, oiladagi zo'ravonliklar masalasi bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda va bu yana-da ta'sirchan mexanizmlar ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Psixologlarning fikricha, oilaviy ajrimlar natijasida farzand chin yoki yarim yetimga aylanib qolishi bola uchun eng katta fojeadir;

- ikkinchidan, ta'lim tizimidagi ayrim kamchiliklar. Tan olish kerakki hozirgi kunda maktabgacha ta'limda, maktablarda va oliy ta'lim tizimida huquqiy, tashkiliy va intellektual jihatdan ijobiy o'zgarishlar qilinayotgan bo'lsada, yuqori malakali kadrlar yetishmasligi bilan bog'liq muammolar, korrupsiyaviy holatlarning uchrab turishi, raqobatbardosh ta'lim standartlarini joriy qilishdagi yo'qotilgan yillar o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib turibdi;

- uchinchidan, oilada ota-onaning bola tarbiyasiga yetarlicha e'tibor bermayotgani ham bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri deyish mumkin. Bu boradagi muammolarni bartaraf etish esa, avvalo, ota-onalar orasida ishsizlikning kuchayishiga, oilada ma'naviy immunitetning zaiflashuviga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish lozim.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish kerakki, bugungi kunda respublikamizda ijtimoiy ish bo'yicha olib borilayotgan barcha jarayonlar, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, jahon hamjamiyatining mustahkam a'zosi sifatida jahon ijtimoiy ish kasbiy faoliyatni bir qismiga aylandi. Bu borada qisqa fursat ichida amalga oshirilgan ishlar, kelajakda ham respublikamizda ijtimoiy ishni rivojlanishini jahon standartlariga olib chiqish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi. Bu savobli ish bizning milliy qadriyatlarimizga mos keladi va rivojlanaveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ismailova R. Kasbiy layoqatlilik va hayotiy shiorlar to'g'risida G'G'Bola va zamon, Toshkent, 2009, № 1
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2014 yildagi 11-son
3. Ganieva M.X O'zbekistonda yoshlar salomatligi hamda sog'lom turmush tarzi. G' «Salomatlik va sog'lom turmush tarzi- barkamol avlod asosi. Xalqaro Forum materiallari- Toshkent: RTsSAD, 2010. – S.243-247.